



**BUXORO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



## **BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-IYUN  
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 643,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 101,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 27,1 % ga va ishlab chiqaradigan sanoati – 2,0% ga pasayishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 573,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,9 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	531,0	896,0	365,0
Gips (gips tosh), t.	115 873,0	83 056,0	-32 817,0



### Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari, mln. soʻm	66 374,5	68 476,0	2 101,5

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m

yanvar-iyun

FHI\*,% da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 517,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 90,3 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-iyun

95,3%

2022-yil yanvar-iyun

90,3%

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 2,3 % (1,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 52,5 % (54,4 %) va quyi texnologiyalisi – 45,1 % (43,7 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,6 % (2021- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 94,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 24,0 % (2021- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 104,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2021- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,6 % (2021- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 92,9 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg‘isi



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Avtomobil benzini



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Mazut



2020-y. 2021-y. 2022-y.

O‘simlik yog‘i (tozalangan)



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa



2020-y. 2021-y. 2022-y.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni



2020-y. 2021-y. 2022-y.

**Konyak spirti (konyak distillyati)**

**Aroq**

**Uzum vinosi**

**Paxta linti**

**Paxta chigiti**

**Paxta tolasi**



2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 461,5 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,1 % ga), 139,7 ming litr uzum vinosi (69,2 %), 2 458,3 ming litr aroq mahsulotlari (3,0 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Mazut, ming t.	41,8	36,2	-5,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	5 312,0	3 397,0	-1 915,0
Paxta tolasi, t.	51 237,0	40 258,0	-10 979,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	44 275,9	46 746,4	2 470,5
Paxta chigiti, t.	74 714,0	58 220,0	-16 494,0
Suyultirilgan propan va butan, ming t.	6,9	7,3	0,4


### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 119,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 94,6 % ga va ishlab chiqarish hajmi 37,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 538,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,0% ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,7 % ga va ishlab chiqarish hajmi 1 819,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.






## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 104,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 793,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 120,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajmi indeksi 108,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 121,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 58,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1% ni, fizik hajm indeksi 97,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 242,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 43,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,6 % ni, fizik hajm indeksi 94,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 724,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 187,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 60,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 467,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 195,6 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3,7	3,5	-0,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	488,2	448,9	-39,3

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln. so'm</i>	9 078,6	8 444 ,7	-633,9
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln. so'm</i>	243,9	245,5	1,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 7,0 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,6 % ga oshganligi kuzatildi. .

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 639,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 39,8 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-iyun

35,9%

2022-yil  
yanvar-iyun

33,5%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-iyun

64,1%

2022-yil  
yanvar-iyun




66,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,6 % (2021- yil yanvar-iyun oylarida 2,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 27,4 % ni va Buxoro shahri 17,7 % ni, G'ijduvon tumani 10,9 % ni hamda Jondor tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (116,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Jondor tumani (132,2 %), Peshku tumani (129,3 %), Kogon tumani (129,2 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 27,4 % shuningdek, Buxoro shahri 17,7 %, G'ijduvon 10,9 % ni, Jondor 7,3 % tumanlari tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 40,5 % shuningdek, Buxoro shahri 16,6 % ni, G'ijduvon tumani 11,8 %, Kogon tumani 5,2 % ni tashkil etdi.

**1 825,2** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyun

**2 340,8** mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyun

**3 083,6** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 19,9 % ni, shuningdek, Jondor tumani 14,7 % ni, Kogon shahriga 9,3 % ni, Kogon tumani esa 9,2 % ni tashkil etdi.





**Buxoro viloyati shahar va tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 42,3 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 11,1 % ni, G'ijduvon tumani esa 7,2 % ni tashkil etdi.

**Buxoro viloyati**

2020- yil

8 584,5 mlrd. so'm

2021- yil

9 044,2 mlrd. so'm

2022- yil

11 643,4 mlrd. so'm



2020- yil


98,0 %

2021- yil

100,3 %

2022- yil

101,0 %




FHI, % da

mlrd. so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (257 055,0 ming so'm), Kogon shahrida (7 327,1 ming so'm), Kogon tumani (7 616,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 869,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati  
ming. so'm




Buxoro viloyati



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 338,8 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 66 284,4 ming so'mni, Kogon tumani – 3 707,9 ming so'mni, Kogon shahrida – 3 180,4 ming so'mni, Buxoro shahrida – 2 882,5 ming so'mni tashkil etdi.

**Buxoro viloyati**



### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 371,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.



### Buxoro viloyati

2020- yil

2 750,8 mlrd. soʻm

2021- yil

3 173,1 mlrd. soʻm

2022- yil

4 371,0 mlrd. soʻm



2020- yil

32,0 %

2021- yil


35,1 %

2022- yil

37,5 %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 902 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 249 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,5 % i) Buxoro shahriga, 590 tasi (12,0 % i) G'ijduvon tumaniga, 395 tasi (8,1 % i) Kogon tumaniga, 372 tasi (7,6 % i) Buxoro tumaniga, 363 tasi (7,4 % i) Jondor tumaniga, 357 tasi (7,3 % i) Romitan tumaniga, 283 tasi (5,8 % i) Vobkent tumaniga to'g'ri kelmoqda.



yangi tashkil etilgan  
faoliyat yuritayotgan

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 148 ta loyiha bo'yicha 1 279,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 13,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-iyun oylarida 313 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 80,1 % ni tashkil etdi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)**

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	111	148
Korxonalar soni, birlik	98	134
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	475,9	1 279,1
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	8,5	13,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	391	313